

QALBI O'ZBEK RUS SHOIRI ALEKSANDR HAYOTIGA BIR NAZAR

Azizova Dilfuza Oltiboy qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rus filalogiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asli rus bo'lsada o'zbek she'riyatiga ulkan hissâ qo'shgan, o'zbek xalqining yuragidan chuqur joy olgan Aleksandr Arkadevich Faynbergning hayoti va ijod yo'li haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shu bilan birga Faynberg merosining ahamiyati va bu orqali yosh kitobxonlarga shoir g'oyalarini yetqazib berish ko'zda tutiladi. Uning ijodida munosib o'rin egallagan tarjimalari haqida so'z boradi. Rusiyzabon bo'lsada o'zbek millat yuragidan o'chmaydigan shoirning ijodi yosh ijodkorlarga targ'ib qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tarjimonlik faoliyati, nodir asarlari, o'zbek millati, she'riy to'plam, "Ruboiy tori", „Yangi Volga“*

**A GLANCE AT THE LIFE OF ALEXANDER, A RUSSIAN POET AT
HEART UZBEK**

Abstrakt: *This article provides detailed information about the life and creative path of Aleksandr Arkadevich Feinberg, who, although originally Russian, made a great contribution to Uzbek poetry and has a deep place in the hearts of the Uzbek people. At the same time, the importance of Feinberg's legacy and the conveyance of the poet's ideas to young readers are considered. It is said about his translations, which have a worthy place in his work. Although being Russian speaking poet, his literary heritage is presented to the Uzbek youth to value importance of his work in Uzbek literature.*

Keywords: *Translation activity, rare works, Uzbek nation, poetry collection, "Rubai tori", "Yangi Volga"*

**ВЗГЛЯД НА ЖИЗНЬ АЛЕКСАНДРА ФАЙНБЕРГА, РУССКОГО
ПОЭТА В СЕРДЦЕ УЗБЕКСКОГО**

Аннотация: *В данной статье представлена подробная информация о жизненном и творческом пути Александра Аркадьевича Фейнберга, который, хотя и русский по происхождению, внес большой вклад в узбекскую поэзию и занимает глубокое место в сердцах узбекского народа. При этом рассматривается значение наследия Файнберга и донесения идей*

поэта до юных читателей. Говорится о его переводах, которые занимают достойное место в его творчестве. Хоть он и русскоязычный поэт, творчество поэта, не угасающее в сердце узбекской нации, пропагандируется среди молодых художников.

Ключивый слова: *Переводческая деятельность, редкие произведения, узбекский народ, поэтические сборники, «Рубай тори», «Янги Волга».*

Yurtimizning yozuvchi shoirlarini bir osmondagi o'zining serqirraligi va yorqin qobiliyati bilan charaqlab turuvchi yulduzlarga qiyoslasak, ana shu yulduzlardan biri qalbi o'zbek bo'lgan, rus hamda o'zbek she'r ixlosmandlarining qalbidan joy olgan - Aleksandr Faynberg Arkadevichdir. Adabiyot, she'riyat ixlosmandlari uchun munosib o'chmas iz qoldirgan yozuvchi, sevimli shoir 1939 - yil 2 - noyabrda Toshkentda dunyoga keldi. Shoir umrining so'nggi lahzalariga qadar Toshkent shahrida yashadi va shu yerda ijod qildi. Otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna bo'lgan. Uning ota-onasi Rossiyaning Novosibirsk shahridan ko'chib kelganidan bir muddat o'tgach, ularning oilasida bo'lajak shoir tug'ildi. Bolaligining baxtli onlari Jukovskiy ko'chalarida yelib yugurib o'tdi. Faynberg o'z yashash joyidagi 7 yillik maktabni tamomladi hamda oradan ko'p vaqt o'tmay Toshkent topografik texnikumiga o'qishga kirdi. Texnikumdagi ta'limino tugatgandan so'ng u harbiy xizmatga yo'l oladi. Aleksandr Faynberg Arkadevich harbiy xizmatini Tojikistonda o'taydi. Harbiy xizmatni o'tab bo'lgan Faynberg yana ta'limni davom ettirishga qaror qiladi hamda Toshkent universiteti (hozirgi Toshkent davlat Milliy universiteti) ga o'qishga topshiradi. Universitetning sirtqi bo'limiga Filalogiya fakultetining jurnalistika yo'nalishiga qabul qilinadi. U yerda talabalar ko'p adadida ish faoliyatini olib borishni boshlaydi. Aleksandr Faynberg Arkadevich Yozuvchilar uyushmasining faol hamda qadrli a'zolaridan hisoblangan. U bu yerdagi faoliyatini ma'lum muddat davomida maslahatchi lavozimida faoliyatini olib borgan. Shoir bu sohada ish olib borishni dastlab Toshkent yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilishdan boshlagan. Shaxsiy hayoti haqida qisqacha to'xtalib o'tsak, Faynberg 1961-yilda Inna Glebovna Koval ismli qiz bilan birga turmush quradi.

Aleksandr Faynberg Arkadevich o'zbek she'riyatiga o'tgan arsning ikkinchi yarmida kirib kelgan shoirlardan hisoblanadi. Uning ijodiy sayohatiga alohida to'xtalib o'tish joizdir. Shoir bolajonlar uchun 20 dan ortiq multifilmlar, bir qancha nasriy asarlar hamda 15 dan ortiq she'riy to'plamlar muallifidir. Unung asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi, matnlari qo'shiqchilar ovozida baralla yangradi, she'rlari va to'plamlari nashr etilishi kutildi va sevib o'qildi.

Aytib o'tish joizki, Faynberg kinossenariylari asosida "O'zbektelefilm" kinostudiyasida bir qancha filmlari yaratildi va sevib tomosha qilindi. Misol uchun "Mening akam", "Qandaharda toblanganlar", "Jazirama oftob tagida" shular jumlasidandir. Uning ssenariylari asosida nafaqat "O'zbektelefilm" balki, "Tojikfilm" kinostudiosida "Jinoyatchilar va oqlovchilar" nomli filmlari ham yaratilgan. Hajviy asarlari turkumiga kiruvchi "Ruboiy tori" dostoni orqali esa u o'zbek choyxonalarini mahorat bilan tasvirlab, xalq qalbidan chuqur joy olgan. „Olis ko'priklar“, „Ijobat“(1982), „Qisqa to'lqin“(1983), „Yoyma to'r“(1984), „Erkin sonetlar“(1990), „Etyud“(1967), „Soniya“(1969), „She'rlar“(1977) she'r va she'riy to'plamlari hali hamon sevib o'qiladi. Quvonarlisi shuki yozuvchining ko'plab o'z vaqtining nodir asarlari Izroil va Kanada kabi chet mamlakatlarida chop etilgan.

Qalami o'tkir shoir tarjima yo'nalishida ham o'z tarjimalari bilan muhim o'rin egallaydi. U mohir tarjimonlardan hisoblanib o'zbek asarlarini rus tiliga tarjima qilish orqali o'zbek she'riyatini tanitishga munosib hissa qo'shgan. Bularga misol tariqasida Moskvada nashr qilingan Erkin Vohidovning „Ruhlar isyoni“ poemasi, Toshkentda chop etilgan „Oqqushlar galasi“ nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasini keltirib o'tish mumkin. Bularga qo'shimcha tarzda tarjimon o'zbek she'riyatining atoqli namoyondalari E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon she'r va dostonlarini rus tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Shu bilan bir qatorda g'azal mulkinging sultoni alisher Navoiyning g'azallari ham bundan mustasno emas. Bular tarjima bo'lib qolmaygina tarjimonning tarjima faoliyatining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Faynbergning avlodlariga qoldirgan ulkan merosini tarjima qilishda esa Rustam Musurmon katta rol o'ynaydi. „Yangi dunyo“, „Yoshlik“, „Yangi Volga“, „O'zgarish“ kabi bir qancha jurnallar yozuvchining durdona she'rlari dunyo yuzini ko'rishiga munosib hissa qo'shdi.

O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg O'zbek she'riyatiga munosib hissa qo'shdi. Uning vafotidan so'ng ham o'zi tomonidan jamlangan ikki tomlik asarlari nashr etildi. U 2008-yilda Pushkin medali bilan taqdirlandi. 2009-yilda Toshkent shahrida vafot etdi. Faynberg xotirasini saqlash maqsadida O'zbekistonga ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, poytaxtda joylashgan adiblar xiyoboniga mamlakatimizning boshqa bir qator shoir va yozuvchilari singari shoirning haykali qo'yildi, yoshlar tomonidan shoir hayot yo'li va ijodini keng targ'ib qilish maqsadida "Faynberg stipendiyasi" joriy qilindi. Aleksandr Arkadevich Faynbergning ijodi adabiyotimiz ravnaqi uchun qiyoslab bo'lmas hissasidir. Shoir o'zining Vataniga bo'lgan insoniylik va milliylik, shukronalik va muhabbat tuyg'ularini merosida aks ettira olgan

shoirdir. U o'zbek yoshlari, she'r ixlosmandlari va millati yuragida doimo barhayotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'ralov U. (dekabr 2022). O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon va shoir – Aleksandr Faynberg. *Pedagog* (4), 745-747.
2. Odinayev A. (iyun 2023). O'zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o'rganilishi. *Education and Innovation*, 2(6), 118-121.
3. Meliqo'ziyeva Z. (aprel 2023). O'zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati. *Scientific Impulse*, 1(9), 770–772.
4. Ibrohimova M. (fevral 2023). Faynberg va uning adabiy borlig'i. *Scientific Impulse*, 1(7), 338-339.
5. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
6. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
7. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg